

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 378.07:005.95-057.17

SADULLAYEV DILMUROD BAXTIYOR O‘G‘LI

INNOVATSION MENEJMENTNING BOSHQARUV TALABLARI
ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI
TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 - Ta’limda menejment

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari doktori,
professor M. Xakimova

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	INNOVATSION MENEJMENTNING BOSHQARUV TALABLARI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	12
§ 1.1.	Oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarini tayyorlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari.....	12
§ 1.2.	Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishga metodologik yondashuvlar.....	29
§ 1.3.	Innovatsion menejmentning boshqaruv talablari asosida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qo'yiladigan zamonaviy yondashuvlar.....	47
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	54
II BOB	INNOVATSION MENEJMENTNING BOSHQARUV TALABLARI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI TAYYORLASH METODOLOGIYASI....	55
§ 2.1.	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlash jarayonlari.....	55
§ 2.2.	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli.....	73
§ 2.3.	Innovatsion menejmentning boshqaruv talablari asosida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirish metodikasi.....	81
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	101
III BOB	INNOVATSION MENEJMENTNING BOSHQARUV TALABLARI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BITIRUVCHILARINI TAYYORLASH SAMARADORLIGI.....	103
§ 3.1.	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv xodimlarini tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish natijalari.....	103
§ 3.2.	Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va statistik tahlili.....	117
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	137
	XULOSALAR.....	139
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	141
	ILOVALAR.....	157

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi raqobatning keskinlashib borishi o'z navbatida ta'lim sohasida innovatsion menejmentning boshqaruv talablariga ko'ra oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO hisobotiga ko'ra (2023) "dunyo bo'yicha innovatsion menejment sohasida malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani sababli talabalarning 40,0%ga yaqini texnik va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim olmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi-larining 80,0%ga yaqini o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan ta'minlanmoqda, bu o'z navbatida ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy aloqani namoyon etadi". Buguni kunda jahon miqyosida, jumladan mehnat bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini innovatsion menejment boshqaruvi talablari asosida tayyorlash yanada dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahonda ta'lim sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar tarkibida bugungi kun talablariga ko'ra innovatsion menejmentning boshqaruv talablariga asosan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada innovatsion menejmentning boshqaruv talablariga asosan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish, innovatsiyaga sarflangan xarajatlarga ko'ra ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsiyaga yo'naltirilgan ta'limning yalpi ichki mahsulot o'sishidagi ulushini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim sohasini tubdan rivojlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablarga ko'ra mustahkamlash, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil oladigan talabalar ulushini 50% ga yetkazish, innovatsion menejment sohasida malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarda birinchi 1000 talikka kiritish kabilar bo'yicha sifat o'zgarishlariga erishilmoqda. "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta

ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash” vazifalari belgilangan. Bunda innovatsion menejmentning boshqaruv talablari tatbiqining didaktik imkoniyatini kengaytirish, pedagogik amaliyotda raqamli texnologiyalarga ko‘ra kadrlar tayyorlash metodologik yondashuvlarini takomillashtirish, ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari kabi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yilning 26-yanvar kuni O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’limni boshqarish, ta’limda innovatsion boshqaruv shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish M.Xakimova¹, A.Umarov²,

¹ Xakimova M. “Ta’limda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish” // Innovatsion ta’lim va tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2021. – S. 12-19.

² Umarov A. “Ta’limni boshqarish tizimida kadrlar kompetentligini shakllantirish” // Ta’lim va boshqaruv nazariyalari. – Samarqand, 2022. – S. 25-31.

D.Ximmataliyev³, F.Madkarimova⁴, B.Muxtarov⁵, N.Salimova⁶, R.Jurayev⁷, R.X.Djuraev⁸, X.I.Ibragimov⁹, Sh.E.Qurbonov¹⁰, S.S.Gʻulomov¹¹, M.T.Mirsoliyeva¹², M.Pardayeva¹³, Y.U.Ismadiyarovlar¹⁴; rahbar va mutaxassislarning uzluksiz kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish N.Ahmedova¹⁵, M.Innazarov¹⁶, Sh.Nizamova¹⁷, B.Ilhomovlar¹⁸; taʼlim tizimi sifat monitoringi S.T.Turgʻunov¹⁹, U.I.Inoyatov²⁰, U.Sh.Begimqulov²¹, Sh.Q.Mardonov²², N.A.Muslimov²³, M.A.Yuldashevlar²⁴ ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

³ Ximmataliev D. “Taʼlim jarayonida innovatsion boshqaruvning rolini tadqiq qilish” // Taʼlim jarayonlari va innovatsiyalar. – Toshkent, 2020. – S. 47-54.

⁴ Madkarimova F. “Rahbarlar va mutaxassislarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish” // Uzluksiz taʼlim tizimi. – Qarshi, 2021. – S. 33-40.

⁵ Muxtarov B. “Taʼlimda boshqaruv kompetentligi va uning zamonaviy tendensiyalari” // Innovatsion taʼlim modellari. – Nukus, 2022. – S. 19-26.

⁶ Salimova N. “Taʼlim boshqaruvida innovatsiyalarni joriy etish” // Boshqaruv va taʼlim. – Samarqand, 2021. – S. 54-60.

⁷ Juraev R.X. “Innovatsion boshqaruv tizimlari tahlili” // Zamonaviy pedagogika tadqiqotlari. – Toshkent, 2020. – S. 11-18.

⁸ Qurbonov Sh.E. “Taʼlimni boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlar” // Innovatsiya va rivojlanish. – Buxoro, 2021. – S. 29-36.

⁹ Ibragimov X.I. “Taʼlimda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari” // Innovatsion taʼlim va boshqaruv. – Toshkent, 2021. – S. 38-45.

¹⁰ Qurbonov Sh.E. “Taʼlimni boshqarish jarayonida innovatsion yondashuvlar” // Innovatsiya va rivojlanish. – Buxoro, 2021. – S. 29-36.

¹¹ S.S. Gʻulomov “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari” // Oʻzbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalari jurnali. – Toshkent, 2018. – S. 11–17

¹² M.T. Mirsoliyeva “Oʻqituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar” // Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari. – Toshkent, 2020. – S. 34–42

¹³ M. Pardaeva “Xizmat koʻrsatish sohasida oila xoʻjaliklarini rivojlantirish” // Oʻzbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish jurnallari. – Nukus, 2021. – S. 25–33

¹⁴ Y.U. Ismadiyarov “Taʼlim sifatini monitoring qilishning samarali usullari” // Oʻzbekiston taʼlimida sifat nazorati. – Toshkent, 2019. – S. 48–55

¹⁵ Ahmedova N. “Kasbiy tayyorgarlik tizimida uzluksizlik tamoyillari” // Kasbiy taʼlim nazariyasi. – Toshkent, 2022. – S. 41-48.

¹⁶ Innazarov M. “Kadrlarning kasbiy rivojlanishida pedagogik yondashuvlar” // Uzluksiz taʼlim va boshqaruv. – Nukus, 2021. – S. 18-25.

¹⁷ Nizamova Sh. “Mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari” // Taʼlim tizimida innovatsiyalar. – Toshkent, 2020. – S. 67-73

¹⁸ Ilhomov B. “Rahbarlarning boshqaruv koʻnikmalarini shakllantirish texnologiyalari” // Taʼlim jarayonida innovatsiyalar. – Buxoro, 2021. – S. 36-42

¹⁹ Turgʻunov S.T. “Taʼlim tizimida sifat monitoringi mexanizmlari” // Taʼlim va sifat nazorati. – Toshkent, 2022. – S. 15-22

²⁰ Inoyatov U.I. “Sifat monitoringini takomillashtirish texnologiyalari” // Boshqaruv va taʼlim nazariyalari. – Nukus, 2021. – S. 29-36.

²¹ Begimqulov U.Sh. “Sifat monitoringi va innovatsiyalarni joriy etish masalalari” // Kasbiy taʼlimda tadqiqotlar. – Toshkent, 2020. – S. 47-54.

²² Mardonov Sh.Q. “Taʼlimda sifat monitoringining zamonaviy usullari” // Pedagogikada innovatsiyalar. – Samarqand, 2021. – S. 33-40.

²³ Muslimov N.A. “Sifat monitoringining taʼlim jarayonidagi ahamiyati” // Kasbiy taʼlim tizimi. – Qarshi, 2022. – S. 23-30.

²⁴ Yuldashev M.A. “Sifat monitoringini joriy etishda innovatsion yondashuvlar” // Taʼlim va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021. – S. 19-26.